

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**ADABIY-TANQIDIY MAQOLADA IJODKOR ICHKI  
DUNYOSINING IN'IKOSI**  
(Ulug'bek Hamdam ijodi misolida)

*Nasima Qodirova,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), BuxDU doktoranti*

Adabiy-tanqidiy maqolada har bir ijodkorning ichki olami, qiziqishlari, hayot va jamiyatga doir mulohazalari namoyon bo'ladi. Tanqid o'ziga xos ijod turi bo'lib, ijodkordan bilim, estetik did, keng tafakkur barobarida ijtimoiy faollikni ham talab etadi. Chunki tanqidchi jamiyatning faol a'zosi, davr adabiyotining xolis baholovchisi sifatida adabiyot olamida va jamiyatda yuz berayotgan voqea - hodisalarga o'z munosabatini bildirib, adabiy jarayonni baholab, kamchilik va yutuqlarini ko'rsatishda yetakchi bo'lishi lozim. Munaqqid asarlari uning ichki dunyosining yorqin ko'rinishidir. Munaqqid maqolalarida o'zini qiynayotgan dard, ijtimoiy hayot va adabiyot munosabatlari, undagi muammolarni bayon etar ekan, bevosita uning ichki dunyosi ochilib boradi. Serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdam adabiy-tanqidiy maqolalarini o'qish barobarida munaqqidning ichki dunyosi bilan ham tanishib boramiz.

Munaqqid "Aslida, haqiqiy ijodkor o'z tavriga ko'ra hamisha oppozitsiyada yashab ijod qiladi. Uning oppozitsiyasi jamiyat va dunyoning mavjud holatini yanada yaxshilashga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqadi" [Hamdam, 2019.], deydi. Bu barcha ijodkorlarga qarata aytilgan bo'lsa-da, aslida U.Hamdam ichki olamidagi qarama-qarshiliklar va bu qarama-qarshiliklarning kelib chiqish sabablarini ochiqalaydi. U. Hamdamning munaqqid sifatida qalam tebratishida ham mana shu oppozitsiya asosiy rol o'ynaydi. Jamiyatning bugungi holati, u borayotgan manzil va uni tuzatishga qay tariqa hissa qo'shish. U qaysi bir asar haqida munosabat bildirmasin, bugungi jamiyatning talablaridan kelib chiqishga intiladi. Tahlilga tortilgan asar bugungi jamiyatimiz holatini nazarga olayaptimi, uning nuqsonlarini yoritib, bunga qarshi kurashish vazifasini bajara olayaptimi, degan masalalar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Munaqqid nazdida, bugun adabiyot o'z yelkasidagi ko'plab vazifalar (siyosiy, mafkuraviy)dan ozod etilgan esa-da, uning abadiy vazifalari, xususan, jamiyatni isloh etishga qaratilgan vazifalari borki, asarda bu yuk, albatta, bo'lishi lozim.

Uslubning dastlabki ta'rifini bergan Gyote va Gegel uni subyekt va obyektning birligi deb baholaydilar [Hotamov, 1983: 311]. Haqiqatan ham munaqqidni o'ylantirgan masala dunyoning mavjud holatini tuzatish uchun,

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

avvalo, nima qilish kerak, dunyoni kim tuzata oladi, kabi umuminsoniy savollar yechimi. Bu yo'lda har bir soha vakillarining o'z vazifalari bor, albatta. Shu jumladan, ijodkorlarning ham. "Ijodkor o'z asarlari orqali o'quvchini Hazrati Inson bo'lishga chaqirmog'i kerak. Shundagina u taqdir tomonidan zimmasiga yuklatilgan Muqaddas Vazifani ado etgan bo'ladi"[Hamdam, 2019.], deydi munaqqid. Ko'rinadiki, munaqqid nazdida ijodkorlik kasb emas, u taqdir tomonidan yuklatilgan Muqaddas Vazifa ekan. Ham badiiy ijod, ham adabiy tanqid bilan shug'ullanib kelayotgan U.Hamdam, avvalo, o'zi ijodni shu tarzda qabul qilgan. Qalbi va ruhiga bu vazifa oldida mas'ulligini singdira olgan. Shuningdek, boshqa ijodkorlar oldiga ham bu vazifani qo'yishga kirishadi.

"Umuman olganda, yozuvchining uslubi uning ichki dunyosining ishonchli ko'rinishidir, yorqin uslubni yozishni istagan kishining, avvalo, qalbi yorqin bo'lsin, bordiyu u ulug'vor uslubda yozmoqchi bo'lsa, eng avvalo qalbida o'sha ulug'vorlik bo'lsin"[Ekkerman, 2016: 97], - deydi Ekkerman. Yozuvchi uslubi haqida aytilgan bu fikr tanqidchi uslubiga ham bevosita tegishli. Chunki tanqid ham ijodning o'ziga xos turi bo'lib, unda shaxsiyat va ichki olam uyg'unligi nihoyatda muhim. Aslini olganda, munaqqidning uslubi uning ichki dunyosining ishonchli ko'rinishidir, yorqin uslubga ega bo'lishni xohlagan tanqidchining, eng avvalo, qalbi yorqin bo'lishi, agar u yuksak uslubda yozmoqchi bo'lsa, eng avvalo qalbida o'sha insoniyatda, adabiyotga, uni yaratuvchilariga nisbatan yuksak hurmat, ulug'vorlik bo'lishi lozim. Ulug'bek Hamdam ham qalbida mana shu hurmatni, ulug'vorlikni yarata olgan, ruhi uyg'oq adib va munaqqidlardan biridir.

Munaqqid tanqid haqida fikr bildirib "Tanqid, avvalo, tanqid emas, balki baholash ekanligini tushunib olishimiz kerak. U har qanday ishga berilgan to'g'ri, haqqoniy bahodir", -der ekan tanqidchi oldiga xolislikni eng muhim shart sifatida qo'yadi. Shuningdek, "Ichida alqovi ham, o'qlovi ham bo'lgan baland munosabatdir. "Baland" degan epitetning ichiga tanqidchining ilmi, tajribasi, intuitsiyasi va albatta ezgulikka yo'g'rilgan qalbi kiradi", deya ta'kidlaydi. U qaysi bir ijodkor ijod mahsuliga munosabat bildirsa, birinchi navbatda, tanqidchi uchun eng zarur fazilat undan go'zallik izlaydi, undagi ijobiy jihatlarni ko'rsatishga intilgani seziladi. Masalan, yosh shoir Najmiddin Ermatovning ko'plab bahslarga sabab bo'lgan "Turkiy elning shiddati so'nganga o'xshayotir" she'ri borasida mulohaza yuritar ekan, "Uning "Turkiy elning shiddati so'nganga o'xshayotir" mazmunidagi, umuman, turkiy elning armoniyu orzu-umidlari to'g'risidagi, boshqacha aytganda, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

she'rlari ruhidagi she'rlarini avval ham qoniqish bilan o'qiganman" [Hamdam, 2023.], deya yosh ijodkorni adabiyotimizning buyuk san'atkorlari davomchisi, ularga munosib bir avlod sifatida e'tirof etadi. Shu birgina e'tirof yosh shoirning o'ziga ishonchini oshirsa, ikkinchi tomondan unga katta mas'uliyat ham yuklaydi. Umuman olganda, ijodi tahlil etilayotgan ijodkorni buyuk so'z ustalariga qiyoslash orqali baholash U.Hamdam adabiy-tanqidiy maqolalariga xos xususiyat bo'lib, munaqqid uslubining bir qirrasini ham aks ettiradi. Xususan, Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasini tahlilga tortganda adibni Qodiriyga mengzasa, Muhammad Yusuf ijodi tahlilida shoirni Mashrabga qiyoslaydi. Bu o'xshatishlardan ezgu maqsadlarni ko'zlaydi, ularni mazkur san'atkorlar qatorida ko'rishni, o'zbek adabiyoti bu kabi buyuk ijodkorlar bilan boyishini istaydi. Shuningdek, munaqqid maqolalarida "alqov" ham "o'qlov" ham o'z o'rnida: "she'rga "Turkiy elning shiddati so'nganga o'xshayotir" deb nom va nuqta qo'yish, eldan umidni uzish bilan barobardek jaranglaydi. Shoir bunday qilmasligi kerak. Shoirning bunday qilishga, so'zda taslim bo'lishga, hukmdorlar botmon-botmon tortib olgan umidning so'nggi misqollarini terib ketishga haqqi yo'q. Mayli, uning jismi taslim bo'lsin, yengilsin, nobud bo'lsin, biroq so'zi emas, yuragi emas!" [Hamdam, 2023.] deya N. Ermatov she'ridagi nuqsonlarni ochiq ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu mulohazalarda ham biz U.Hamdam ichki olamidagi yengilmas ruhni ko'ramiz. Bu yengilmas ruh munaqqidga haq so'zni ayta olish, borini boricha ko'rsatish jasoratini beradi. U. Hamdamning adabiy-tanqidiy maqolalariga tegishli eng muhim xususiyatlardan biri ham aynan shu. Tanqidchi asarlari uning ichki dunyosining yorqin ko'rinishi degan mulohazani yuqorida keltirdik. Haqiqatan ham bugungi jarayonning faol kuzatuvchisi, jonkuyar adib va munaqqidning adabiy-tanqidiy qarashlarida uning o'ziga xos uslubi, bu uslub qatida esa uning yoniq qalbi, ichki olami shakllanayotganligini ko'ramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ekkerman Y.P. Gyote bilan gurunglar. Toshkent. "O'zbekiston", 2016.
2. Tanqidchi jamiyat vijdoni bo'lishi kerak. Jovli Xushboq bilan yozuvchi Ulug'bek Hamdam gurungi. 8-may 2019-yil.
3. "Turkiy elning shiddati so'nganga o'xshayotir" haqida ilk taassurotlar U.Hamdam. 28.02.2023
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati. Toshkent. "O'qituvchi", 1983.